



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

MULOQOTDA PRAGMATIK MARKERLARNING KOMMUNIKATIV FUNKSIYALARI

Mashxura Yuldosheva

PhD, IIV Namangan akademik litseyi
Tillarni o'rganish kafedrası boshlig'i

Annotatsiya.

Mazkur maqolada muloqot jarayonida pragmatik markerlarning asosiy kommunikativ funksiyalari tahlil qilinadi, ularning nutqiy vaziyatga bog'liq holda qanday ma'no va ta'sir kuchiga ega bo'lishi, pragmatik markerlarning diskursni tashkil etish, suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatni belgilash hamda muloqot samaradorligini oshirishdagi rolini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: pragmatik markerlar, muloqot, diskurs markerlari, modal markerlar, munosabat markerlari, interaktiv markerlar, kuchaytiruvchi va yumshatuvchi markerlar, xushmuomalalik (hurmat) markerlari, kommunikativ funksiyalar.

COMMUNICATIVE FUNCTIONS OF PRAGMATIC MARKERS IN COMMUNICATION

Mashxura Yuldosheva

PhD, Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs in Namangan
Head of the Department of Language Studies

Abstract.

This article analyzes the main communicative functions of pragmatic markers in the process of communication. It examines how pragmatic markers acquire meaning and exert influence depending on the speech situation, and highlights their role in organizing discourse, shaping interpersonal relations between interlocutors, and enhancing the effectiveness of communication.

Keywords: pragmatic markers, communication, discourse markers, modal markers, attitude markers, interactive markers, intensifying and mitigating markers, politeness markers, communicative functions.

КОММУНИКАТИВНЫЕ ФУНКЦИИ ПРАГМАТИЧЕСКИХ МАРКЕРОВ В ОБЩЕНИИ

Машхура Юлдошева

PhD, Академический лицей МВД в Намангане
заведующая кафедрой изучения языков

Аннотация.

В статье анализируются основные коммуникативные функции прагматических маркеров в процессе общения. Рассматривается, каким образом прагматические маркеры приобретают значение и оказывают воздействие в зависимости от речевой ситуации, а также раскрывается их роль в организации дискурса, формировании межличностных отношений между коммуникантами и повышении эффективности коммуникации.

Ключевые слова: прагматические маркеры, общение, дискурсивные маркеры, модальные маркеры, маркеры отношения, интерактивные маркеры, усилительные и смягчающие маркеры, маркеры вежливости, коммуникативные функции.

Zamonaviy tilshunoslikda muloqot jarayonini faqat grammatik va semantik birliklar asosida tahlil qilish yetarli emasligi tobora aniq bo'lib bormoqda. Nutqiy muloqotda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabat, nutqning maqsadi, kontekst hamda ijtimoiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu jihatlar pragmatika sohasining markaziy masalalaridan biri bo'lib, pragmatik markerlar muloqotning samarali tashkil etilishida muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Pragmatik markerlar nutqda so'zlovchining munosabati, niyati, bahosi hamda kommunikativ strategiyasini ifodalashga xizmat qiladi. Ular orqali nutqiy birliklar o'zaro bog'lanadi, suhbatning mantiqiy izchilligi ta'minlanadi, shuningdek, tinglovchining e'tiborini boshqarish, tushunishni osonlashtirish va muloqot jarayonini muvofiqlashtirish amalga oshiriladi. Shu sababli pragmatik markerlar kommunikativ jarayonning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Muloqotda pragmatik markerlarning kommunikativ funksiyalari ayniqsa og'zaki nutqda yaqqol namoyon bo'ladi. Ular yordamida so'zlovchi fikrini kuchaytiradi yoki yumshatadi, noaniqlikni bildiradi, o'z pozitsiyasini baholaydi hamda suhbatdosh bilan ijtimoiy-madaniy muvozanatni saqlaydi. Bundan tashqari, pragmatik markerlar politeness va impoliteness strategiyalarini amalga oshirishda, ya'ni hurmat, muloyimlik yoki aksincha, tanqid va bosimni ifodalashda muhim pragmatik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Jahon tilshunosligida pragmatik markerlar masalasi qator yetuk olimlar tomonidan tizimli ravishda tadqiq etilgan. Xususan, **G.Andersen** pragmatik markerlarni sotsiolingvistik variatsiya bilan bog'liq holda o'rgangan bo'lsa, **L.J.Brinton** ularning grammatikalashuvi va diskursdagi funksiyalarini chuqur tahlil qilgan. **G.Feng** pragmatik markerlarni konvensional implikatura nazariyasi asosida, xususan xitoy tili materialida tadqiq etgan. **A.M. Simon-Vandenberg** va **K.Aijmer** pragmatik markerlarni qiyosiy nuqtayi nazardan yoritgan. **Gandersen** va **T.Fretheim** esa ularning propositsional munosabat bilan aloqasini o'rganishga e'tibor qaratgan. Shuningdek, **A.Sansò** va **C.Fedriani** pragmatik markerlar, diskurs markerlar va modal partikullarni zamonaviy nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilgan. **K.Aijmer**ning tadqiqotlari esa pragmatik markerlarning variativ-pragmatik xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan.

O'zbek tilshunosligida pragmatik markerlar masalasi hozirga qadar **yaxlit va tizimli tadqiqot obyekti** sifatida to'liq shakllanmagan. Mazkur soha doirasidagi qarashlar asosan ayrim nutqiy birliklar, diskurs hodisalari yoki pragmatik jihatlar tahlili bilan cheklanib, pragmatik markerlarning umumiy tasnifi, funksional xususiyatlari hamda muloqotdagi roli maxsus va kompleks tarzda o'rganilmagan.

Ko'pincha aytilgan gapning ma'nosi faqat undagi so'zlar bilan to'liq ochilmaydi. Tinglovchi gapni vaziyat va kontekst asosida tushunib, so'zlovchining asl niyatini anglaydi. Shu jarayonda so'zlovchi tinglovchiga yordam berish uchun turli ishoralar va belgilarni qo'llaydi. Bular mimika va harakatlar, ohang (intonatsiya), shuningdek, ayrim maxsus so'zlar va iboralardan iborat bo'lishi mumkin. Aynan shu maxsus so'z va iboralar pragmatik markerlar deb ataladi.

So'nggi o'n yilliklarda diskurs qismlari o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatuvchi, so'zlovchining nopropozitsional munosabatini ifodalovchi hamda muloqotni boshqarishga xizmat qiluvchi birliklarga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Ilmiy adabiyotlarda bu birliklar *bog'lovchi*, *diskurs marker*, *diskurs partikul*, *pragmatik marker*, *pragmatik partikul* yoki *thetikal birlik* kabi turli nomlar bilan ataladi [1,18]. Boshqa bir manbada esa pragmatik markerlar *diskurs marker*, *pragmatik partikul*, *interaksion signal*, *kichik so'z* yoki *to'ldiruvchi birlik* kabi nomlar bilan ham atalishi haqida ma'lumot beriladi. Terminlar turlicha bo'lsa-da, ular asosan bir xil pragmatik hodisani ifodalaydi [2, 24].


Mazkur atamalarining ta’rifi va chegaralari borasida yagona qarash mavjud emas. Ayrim tadqiqotchilar pragmatik markerlarni shaxslararo munosabat bilan bog‘liq birliklar, diskurs markerlarni esa matniy bog‘liqlikni ta’minlovchi vositalar sifatida ajratadi. Boshqa olimlar esa *pragmatik marker* atamasini kengroq, umumlashtiruvchi tushuncha sifatida qo‘llab, unga munosabat va illokutsion kuchni ifodalovchi birliklarni ham kiritadi.

“*Marker*” tushunchasi birlikning vazifasini bildiradi va uning qaysi so‘z turkumiga mansubligini cheklamaydi. Ya’ni pragmatik markerlar ravish, bog‘lovchi, undov yoki hatto ibora shaklida bo‘lishi mumkin. Ularning fonetik yoki grammatik tuzilishi ham qat’iy mezon hisoblanmaydi.

Pragmatik markerlar odatda “kichik so‘zlar” sifatida tasavvur qilinsa-da, ba’zi hollarda butun iboralar ham shu vazifani bajaradi. Ushbu birliklar nafaqat yozma va og‘zaki nutqda, balki muloqot jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda ham muhim rol o‘ynaydi. Xususan, ular so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy rollarni, munosabat darajasini yoki vaziyatga xos bo‘lgan ijtimoiy jihatlarni ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli pragmatik markerlar faqat nutqni tashkil etuvchi vosita emas, balki ijtimoiy muloqotni tartibga soluvchi muhim lingvistik birliklar sifatida qaraladi. Pragmatik markerlar rivojlanish jarayonida grammatikalashuvga xos o‘zgarishlardan o‘tadi. Avval ularda asosiy mazmunga kirmaydigan, qo‘shimcha pragmatik ma’nolar paydo bo‘ladi. Keyin bu ma’nolar nutqda tez-tez qo‘llanib, barqarorlashadi va kuchayadi. Natijada pragmatik markerlar so‘zlovchining munosabati va niyatini ifodalovchi birliklarga aylanadi[3, 28].

S.Safoyeva, F.Normurodovlar pragmatik markerni “pragmatik belgilar” nomi bilan atab, unga “Leksik elementlar, ko‘pincha so‘z yoki ifodalar bo‘lib, ular so‘zlovchining munosabati, niyati yoki gapning pragmatik kontseptsiyasini bildirishda juda muhim o‘rin egallaydi. Muayyan semantik mazmunga ega bo‘lgan so‘zlardan farqli o‘laroq, pragmatik belgilari asosan nutq yoki kommunikativ funksiyaga xizmat qiladi. Pragmatik belgilari taklif mazmunining tarkibiy qismlari emas, aksincha, pragmatik funktsiyalar uchun vosita sifatida qo‘llaniladigan so‘zlar, iboralar yoki gaplardir” deya izoh beradilar [4, 5].

Pragmatik markerlar muloqot jarayonida bajaradigan vazifalari va nutqiy kontekstga ko‘rsatadigan ta’siriga ko‘ra bir nechta asosiy turlarga ajratiladi. Ushbu tasnif pragmatik markerlarning diskursni tashkil etishdagi, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatni belgilashdagi hamda nutqning ta’sirchanligini boshqarishdagi funksional xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi. Shu asosda pragmatik markerlarning asosiy turlari aniqlanadi va tizimli ravishda quyidagicha guruhlanadi:



I. Diskursiv markerlar pragmalingsvistikaning muhim tushunchalaridan biri bo'lib, ular nutq va matn doirasida gaplar, fikrlar hamda diskurs bo'laklari o'rtasidagi mantiqiy, semantik va pragmatik munosabatlarni ifodalovchi birliklar sifatida tavsiflanadi. Bu birliklar gapning grammatik tuzilmasiga bevosita ta'sir ko'rsatmagan holda, nutqning izchilligi, yaxlitligi va kommunikativ samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Diskurs markerlar og'zaki nutqda tez-tez uchraydigan qisqa so'z va iboralar bo'lib, ular ko'pincha "to'ldiruvchi birliklar" sifatida baholanadi. Biroq ular leksik ma'noga ega bo'lmasa ham, diskurs darajasida muhim vazifalarni bajaradi. Ular nutqning boshlanishi yoki yakunini belgilaydi, mavzuning o'zgarishini ko'rsatadi, og'zaki nutqda navbat almashishni, yozma nutqda esa matn bo'laklarini ajratishni ta'minlaydi. Shuningdek, diskurs markerlar so'zlovchining munosabatini ifodalaydi va adresant bilan adresat o'rtasida yaqinlikni yuzaga keltiradi [5, 6].

Diskursiv markerlarning funksional turlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. *Qo'shimcha axborot kirituvchi diskursiv markerlar*. Oldingi fikrga qo'shimcha axborot berish vazifasini bajaradi: ham, shuningdek, bundan tashqari, yana, qo'shimcha ravishda...;

2. *Sabab-natija munosabatini bildiruvchi diskursiv markerlar*. Fikrlar o'rtasidagi sabab va oqibat munosabatini ifodalaydi: shuning uchun, natijada, demak, shu bois, oqibatda...;

3. *Ketma-ketlikni bildiruvchi diskursiv markerlar*. Nutqdagi fikrlarning mantiqiy va vaqt jihatdan izchilligini ko'rsatadi. o'zbekcha birliklar: avvalo, birinchidan, ikkinchidan, so'ngra, keyin, undan keyin, nihoyat...;

4. *Taqqoslashni bildiruvchi diskursiv markerlar*. Fikr yoki holatlar o'rtasidagi o'xshashlikni ko'rsatadi: xuddi shuningdek, shu kabi, o'xshash tarzda...;

5. *Qarama-qarshilikni bildiruvchi diskursiv markerlar*. Ziddlik yoki muqobil fikrni ifodalaydi: biroq, ammo, lekin, aksincha, shu bilan birga, boshqa tomondan...;

6. *Misol va izoh keltiruvchi diskursiv markerlar*. Umumiy fikrni aniqlashtirish yoki tushuntirishga xizmat qiladi: masalan, jumladan, xususan, ya'ni, boshqacha aytganda...;

7. *Xulosa chiqaruvchi va ta'kidlovchi diskursiv markerlar*. Nutqning yakuniy bosqichida asosiy fikrni jamlaydi va ta'kidlaydi: xulosa qilib aytganda, yakunda, qisqacha aytganda, oxir-oqibat.

8. *Vaqtini bildiruvchi diskursiv markerlar*. Nutqdagi hodisaning vaqt bilan bog'liqligini ko'rsatadi: ilgari, avval, yaqinda, so'nggi paytlarda, o'tmishda...;

Bundan ma'lum bo'ladiki, diskursiv markerlar muloqot jarayonida matnning mantiqiy tuzilishini shakllantiruvchi, nutqni izchil va tushunarli qiluvchi muhim pragmatik birliklar bo'lib, ular so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ hamkorlikni ta'minlaydi.

II. Modal markerlar pragmalingsvistika doirasida so'zlovchining bayon etilayotgan fikrga bo'lgan munosabatini, bahosini hamda ishonch darajasini ifodalovchi pragmatik birliklar sifatida talqin qilinadi. Ular gapning asosiy propositsional mazmunini o'zgartirmagan holda, mazkur mazmunning qanday sharoitda, qanchalik qat'iy yoki nisbiy tarzda bayon etilayotganini ko'rsatadi. Shu jihatdan modal markerlar nutqning subyektivlik darajasini belgilovchi muhim vosita hisoblanadi.

Pragmalingsvistik nuqtayi nazardan modal markerlar so'zlovchining epistemik pozitsiyasini, ya'ni axborotning haqiqiylik darajasiga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Ular orqali ehtimollik, taxmin, shubha, ishonch, qat'iylik yoki majburiylik kabi modal ma'nolar ifodalanadi. Modal markerlar tinglovchiga bayon qilinayotgan axborotni qanday talqin qilish lozimligi haqida pragmatik signal beradi.

Modal markerlar kommunikativ jarayonda bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, ular axborotning ishonchlilik darajasini belgilaydi va so'zlovchining mas'uliyat darajasini ko'rsatadi. Masalan, ehtimol, chamasi kabi birliklar bayonning taxminiy ekanini

bildirsa, albatta, shubhasiz kabi birliklar fikrning qat'iyligini ifodalaydi. Ikkinchidan, bu markerlar muloqotda ehtiyotkorlik strategiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi, ya'ni so'zlovchi o'z fikrini mutlaq hukm sifatida emas, balki nisbiy mulohaza sifatida taqdim etadi. Bundan tashqari, modal markerlar xushmuomalalik(ba'zi tadqiqotlarda hurmat) va hurmatsizlik strategiyalari bilan chambarchas bog'liqdir. Modal birliklar yordamida so'zlovchi buyruq, tanqid yoki baholashni yumshatishi yoki aksincha, kuchaytirishi mumkin. Shu tariqa modal markerlar muloqotda ijtimoiy masofa, murosaviylik va nutqiy ehtiyotkorlikni ta'minlovchi pragmatik mexanizm vazifasini bajaradi.

III. Munosabat markerlari pragmalingsvistika doirasida so'zlovchining bayon qilinayotgan mazmunga nisbatan hissiy, baholovchi va subyektiv munosabatini ifodalovchi pragmatik birliklar sifatida talqin qilinadi. Ushbu birliklar gapning propositsional mazmuniga, ya'ni axborotning haqiqiylik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatmaydi, balki mazkur axborotga so'zlovchi tomonidan berilayotgan munosabatni namoyon etadi. Shu jihatdan munosabat markerlari nutqning **affektiv (hissiy)** va **evaluativ (baholovchi)** qatlamini shakllantiradi.

O'zbek tilida *afsuski, baxtimga, quvonarlisi, ajablanarlisi, hayratlanarlisi, achinarlisi, tabiiyki...* kabi birliklar an'anaviy grammatik yondashuvda modal so'zlar sifatida baholanadi. Biroq pragmalingsvistik yondashuvda ularning kommunikativ vazifasi asosiy mezon sifatida olinadi. Mazkur birliklar axborotning ishonchlilik darajasi yoki ehtimolligini bildirmaydi, balki so'zlovchining ushbu axborotga bo'lgan hissiy va baholovchi munosabatini ifodalaydi. Shu sababli ular modal markerlardan farqli ravishda munosabat markerlari sifatida ajratiladi. *Modal markerlar bilan munosabat markerlari o'rtasidagi asosiy farq* ularning pragmatik funksiyasida namoyon bo'ladi. Modal markerlar, masalan, ehtimol, balki, chamasi, albatta, shubhasiz kabi birliklar, bayon qilinayotgan fikrning qanchalik ishonchli, taxminiy yoki qat'iy ekanini ko'rsatadi. Ya'ni ular axborotning epistemik holatini belgilaydi. Munosabat markerlari esa axborotning to'g'riligi yoki noto'g'riligini muhokama qilmaydi, balki ushbu axborotga berilgan ijobiy yoki salbiy bahoni ifodalaydi.

Demak, munosabat markerlari nutqning emotsional fonini belgilaydi, diskursning ekspressivligini oshiradi hamda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida psixologik yaqinlikni kuchaytiradi. Ular orqali afsuslanish, quvonch, hayrat, achinish kabi holatlar nutqda ochiq namoyon bo'ladi. Shu tariqa munosabat markerlari muloqotda baholash, empatiya va subyektiv munosabatni ifodalovchi muhim pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi.

IV. Interaktiv markerlar muloqot jarayonida so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro aloqani tashkil etish, boshqarish va faollashtirishga xizmat qiluvchi pragmatik birliklardir. Ushbu markerlar nutq mazmunining o'ziga emas, balki muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabatiga, tinglovchining ishtirok darajasi va e'tiboriga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Shu jihatdan interaktiv markerlar nutqning dialogik tabiatini yuzaga chiqaruvchi muhim pragmatik vosita hisoblanadi. Interaktiv markerlar so'zlovchining kommunikativ niyatini ochiq namoyon etadi. Ular yordamida so'zlovchi tinglovchini muloqotga jalb qiladi, uning e'tiborini muayyan nuqtaga qaratadi, tushunishni tekshiradi yoki suhbatning davom etishini rag'batlantiradi. Interaktiv markerlar ko'pincha og'zaki nutqda faol qo'llanadi va bevosita kommunikativ hamkorlikni ta'minlaydi. *Interaktiv markerlarning asosiy kommunikativ funksiyalari* quyidagilardan iborat: tinglovchining diqqatini jalb etish; muloqotda faol ishtirokni ta'minlash; tushunishni nazorat qilish; nutqiy aloqani uzluksiz davom ettirish; so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida yaqinlikni kuchaytirish.

O'zbek tilida interaktiv markerlarga *bilasizmi, tushunyapsizmi, eshitayapsizmi, qarang, e'tibor bering, aytsam, ko'rib turganingizdek...* kabi birliklar kiradi. Ushbu markerlar nutqda mustaqil axborot bermaydi, biroq muloqotning samarali kechishini ta'minlovchi pragmatik signal vazifasini bajaradi.

V. *Kuchaytiruvchi va yumshatuvchi markerlar* nutqda fikrning darajasi ta'sir kuchini boshqarishga xizmat qiluvchi birliklardir. Ular gapning asosiy mazmunini o'zgartirmaydi, balki mazmunning qanchalik kuchli, qat'iy yoki aksincha, ehtiyotkor shaklda ifodalanayotganini ko'rsatadi. Shu orqali so'zlovchi o'z nutqiy maqsadini aniqroq va mos shaklda amalga oshiradi.

Kuchaytiruvchi markerlar fikrning ta'sirchanligini oshirish, bahoni kuchliroq ifodalash va so'zlovchining pozitsiyasini aniqroq ko'rsatishga xizmat qiladi. Ular ko'pincha ta'kidlash, baholash yoki tanqid mazmunidagi nutqiy holatlarda qo'llanadi va nutqning ekspressivligini kuchaytiradi. O'zbek tilida kuchaytiruvchi *markerlarga juda, nihoyatda, o'ta, g'oyat, rosa, haddan tashqari* ravishlar, *takrorlar, kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari...* kiradi. Ushbu birliklar orqali fikr kuchli urg'u bilan yetkaziladi va tinglovchiga aniq ta'sir ko'rsatiladi.

Yumshatuvchi markerlar fikrni nisbiy, muloyim va ehtiyotkor shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Ular nutqning keskinligini kamaytiradi, baho yoki tanqidni yumshatadi hamda ijtimoiy jihatdan maqbul muloqotni ta'minlaydi. Ayniqsa iltimos, taklif yoki nozik munosabat talab etiladigan vaziyatlarda bu markerlar muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilida yumshatuvchi markerlarga *biroz, sal, anchayin, qisman, deyarli, uncha emas ...* kabi birliklar, *ozaytirma darajadagi sifatlar* kiradi. Bu markerlar yordamida so'zlovchi o'z fikrini mutlaq hukm sifatida emas, balki murosali mulohaza sifatida ifodalaydi.

Kuchaytiruvchi va yumshatuvchi markerlar nutqning ta'sir darajasini so'zlovchi, baholash va munosabatni nozik tarzda ifodalash imkonini beruvchi muhim vositalardir. Ular muloqot jarayonida so'zlovchining strategik tanlovini aks ettirib, nutqning samaradorligini oshiradi.

VI. *Xushmuomalalik/hurmat markerlari* muloqot jarayonida so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatni tartibga solishga xizmat qiluvchi pragmatik birliklardir. Ular nutqda hurmat, muloyimlik, ehtiyotkorlik hamda ijtimoiy masofani saqlash yoki kamaytirish kabi maqsadlarni ifodalaydi. Ushbu markerlar orqali muloqot ijtimoiy va madaniy me'yorlarga mos tarzda tashkil etiladi. Xushmuomalalik markerlari gapning asosiy mazmunini o'zgartirmaydi, balki mazmunning qanday shaklda, qanchalik muloyim yoki ehtiyotkor ifodalanayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa iltimos, buyruq, rad etish, tanqid yoki uzr bildirish kabi nutqiy vaziyatlarda hurmat markerlarining ahamiyati yuqori bo'ladi. O'zbek tilida xushmuomalalik (hurmat) markerlariga *iltimos, marhamat, kechirasiz, uzr, rahmat, bo'lsa maylimi, mumkin bo'lsa...* kabi birliklar kiradi. Ushbu birliklar yordamida so'zlovchi o'z fikrini keskin buyruq yoki talab shaklida emas, balki ijtimoiy jihatdan maqbul, muloyim shaklda ifodalaydi.

Xushmuomalalik markerlari muloqotda bir nechta muhim vazifani bajaradi: hurmat va muloyimlikni ifodalash; nutqiy keskinlikni kamaytirish; ijtimoiy muvozanatni saqlash; muloqotdagi ehtimoliy ziddiyatlarning oldini olish. Xushmuomalalik (hurmat) markerlari muloqotning madaniy va ijtimoiy jihatdan maqbul bo'lishini ta'minlovchi muhim pragmatik vositalar bo'lib, ular nutqning samaradorligi va ijobiy qabul qilinishida muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, pragmatik markerlar muloqot jarayonida turli shakl va vazifalarda namoyon bo'ladigan ko'p qirrali kommunikativ vositalar hisoblanadi. Ularning ahamiyati muayyan turlarga ajratilishida emas, balki nutqning real ishlatilishida qanday funksiyani bajarishida namoyon bo'ladi. Pragmatik markerlar orqali so'zlovchi nutq mazmunini izchil tashkil etadi, fikrning qabul qilinish yo'nalishini belgilaydi hamda tinglovchi bilan bo'lgan kommunikativ aloqani boshqaradi. Ular muloqotda axborotning qanday darajada ishonchli, qanday munosabat bilan va qanchalik ehtiyotkor yoki ta'sirchan tarzda yetkazilishini ta'minlaydi. Ular nutqni oddiy axborot uzatish jarayonidan chiqarib,

ijtimoiy, baholovchi va hissiy jihatlar bilan boyitilgan kommunikativ faoliyatga aylantiradi. Shu orqali muloqot mazmunan chuqurlashadi, talqin qilish imkoniyatlari kengayadi va nutqiy ta'sir kuchi oshadi. Bu markerlarning faol qo'llanilishi muloqotda tushunmovchiliklarning kamayishiga, nutqiy ziddiyatlarning oldini olishga va kommunikativ muvozanatning saqlanishiga xizmat qiladi. So'zlovchi ushbu birliklar yordamida o'z fikrini moslashuvchan tarzda ifodalaydi, vaziyatga qarab baho beradi va tinglovchining ehtiyojlarini hisobga olgan holda nutqni tashkil etadi. Natijada muloqot samarali, tushunarli va ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda kechadi. Shu bois pragmatik markerlarni o'rganish nutqning ichki mexanizmlarini anglash, kommunikativ strategiyalarni aniqlash va til birliklarining real muloqotdagi funksional imkoniyatlarini ochib berishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ular til tizimining faqat formal qismi emas, balki muloqotni boshqaruvchi va uni mazmunan boyituvchi asosiy unsurlardan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Van Olmen D., Šinkūnienė J. (eds.). Pragmatic markers and peripheries. – Amsterdam ; Philadelphia : John Benjamins Publishing Company, 2021. – 452 p.
2. Andersen G. Pragmatic markers and sociolinguistic variation : a relevance-theoretic approach to the language of adolescents. – Amsterdam ; Philadelphia : J. B. Publishing Company, 2001. – 352 p.
3. Brinton L. J. The evolution of pragmatic markers in English : pathways of change. – Cambridge : Cambridge University Press, 2017. – 331 p.
4. Safojeva S.N. Diskursiv markerlar bo'yicha turli qarashlar // Ilm-fan va innovatsiya : ilmiy- amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent : Innovative Academy, 2023. – B. 162–163.
5. Brinton L.J. Pragmatic markers in English : grammaticalization and discourse functions. – Berlin ; New York : Mouton de Gruyter, 1996. – 412 p 6-bet].
6. Feng G.A theory of conventional implicature and pragmatic markers in Chinese. – Bingley : Emerald, 2010. – 243 p.
7. Simon-Vandenberghe A.-M., Aijmer K. (eds.). Pragmatic markers in contrast. – Leiden ; Boston : Brill, 2022. – 257 p.
8. Andersen G., Fretheim T. (eds.). Pragmatic markers and propositional attitude. – Amsterdam ; Philadelphia : John Benjamins Publishing Company, 2000. – 273 p.
9. Sansò A., Fedriani C. (eds.). Pragmatic markers, discourse markers and modal particles : new perspectives. – Amsterdam ; Philadelphia : John Benjamins Publishing Company, 2017. – 492 p.
10. Aijmer K. Understanding pragmatic markers : a variational pragmatic approach. – Edinburgh : Edinburgh University Press, 2013. – 224 p.
11. Safojeva S. N., Normurodova F. Pragmatik markerlar, lingvistik yondashuv va bog'liqlik nazariyasi // Innovative Development in Educational Activities (IDEA). – 2024. – T. 3, № 3. – B. 4-8.